KOKAND UNIVERSITY HERALD
SCIENTIFIC E-JOURNAL

QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI
KOKAND UNIVERSITY HERALD
ВЕСТНИК КОКАНДСКОГО УНИВЕРСИТЕТА

HERALD

ISSN: 2181-1695 OAK: 01-08/1819/6 www.herald.kokanduni.uz

# LAYLO XONIM HAMID AFANDI QIZI ADABIY MEROSI

**Abduqaxxorova Farzona Baxtiyorjon qizi,**
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti magistranti.
**DOI:** https://doi.org/10.54613/ku.v18i.1614

**MAQOLA HAQIDA/ О СТАТЬЕ**

**Qabul qilindi:** 15-aprel 2026-yil
**Tasdiqlandi:** 17-aprel 2026-yil
**Jurnal soni:** 18-A
**Maqola raqami:** 54

**KALIT SO‘ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА**

Muhammad Rahimxon, adabiy muhit, devon, nusxa, “Basmala”, janr, g‘azal, mustazod

**ANNOTATSIYA/ АННОТАЦИЯ**

Ushbu maqolada hozirgi kunda matnshunoslik sohasida olib borilayotgan tadqiqotlardan biri haqida so‘z yuritiladi. Laylo xonim Hamid Afandi qizi hayoti va ijodiy faoliyati haqidagi izlanishlarning bir qismi o‘rganildi va ma’lum bir natijalar olindi. Uning hozirgi kunda Abu Rayxon Beruniy nomidagi qo‘lyozmalar institutida saqlanayotgan ikki devoni aniqlandi. Bu devonlar Xorazm adabiy muhiti bilan bog‘liqligi, Muhammad Rahimxon davrida ko‘chirilgan nusxalar ekanligi aniqlandi. Devondagi she’rlar tasnifi qisqacha berildi. Mazkur tadqiqot Laylo xonim Hamid Afandi qizining adabiy merosini matnshunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilishga qaratilgan bo‘lib, unda shoira devonlarining qo‘lyozma nusxalari, ularning yaratilish davri, tarkibi va janriy xususiyatlari ilmiy asosda o‘rganiladi. Tadqiqot natijasida Laylo ijodining Xorazm adabiy muhitidagi o‘rni, uning boshqa shoirlar bilan adabiy aloqalari hamda devon tuzish an’analari bilan bog‘liqligi yoritib beriladi. Shuningdek, qo‘lyozmalarning paleografik va kodikologik jihatlari ham qisqacha tavsiflanib, ularning ilmiy va madaniy ahamiyati asoslab beriladi.

**ABOUT THE PAPER**

**Accepted:** 15 april 2026
**Approved:** 17 april 2026
**Volume:** 18-A
**Paper number:** 54

**KEYWORDS**

Muhammad Rahimkhan, literary environment, divan, copy, "Basmala", genre, ghazal, mustazod

**ANNOTATION**

This article discusses one of the studies currently being conducted in the field of textual studies. Part of the research on the life and creative activity of Layla Khanum Hamid Afandi qizi was studied and certain results were obtained. Two of her divans, currently kept at the Abu Raykhan Beruni Institute of Manuscripts, were identified. It was determined that these divans are related to the Khorezm literary environment and are copies copied during the time of Muhammad Rahimkhan. A brief classification of the poems in the divans is given. This study focuses on a textual analysis of the literary heritage of Layla Khanum, daughter of Hamid Afandi, examining the manuscript copies of her divans, their historical context, structure, and genre characteristics. The research highlights her role within the Khorezm literary environment, her creative connections with contemporaries, and her contribution to the tradition of divan compilation. Additionally, the study provides a brief description of the paleographic and codicological features of the manuscripts, emphasizing their scholarly and cultural significance.

**Kirish.** Xorazm adabiy muhiti haqida gap ketar ekan shu o‘rinda Muhammad Rahimxon Feruz nomini ta’kidlab o‘tish joiz. Negaki saltanatda mana shunday adabiy muhit yaratilishiga sabab bo‘lgan shaxs Muhammad Rahimxondir. U Feruz taxallusi bilan ijod qilgan. Xorazmning eng so‘nggi mustaqil xoni. Xorazm XIX asr oxiri – XX asr boshlarida nihoyatda tahlikali davrni boshdan kechirayotgan bir payt edi. Rossiya bu paytda xonliklar ustiga bostirib kelayotgan, ularni o‘z mustamlakasiga aylantirish maqsadida turli yo‘llarni izlayotgan davrda, taxt tepasiga kelgan Muhammad Rahimxon Soniy o‘z hukmronligi ostida ilm egalarini jamlay oldi. Xorazm adabiy muhiti shunchalik ko‘p ilm ahlini birlashtirganki, shu kungach qanchadan qancha olimlar, taqiqotchilar tomonidan o‘rganilishiga qaramay, hali hamon yana ko‘plab yosh tadqiqotchilar uchun tadqiqot obyekti bo‘lib kelmoqda.

Saltanatda adabiy muhit yaratilishi hukmron tabaqa vakillariga ko‘p jihatdan bog‘liq, ayniqsa, boshqaruvchiga. Qachonki shoh ilmli bo‘lar ekan,shunda qo‘l ostidagilari ham uning yo‘lidan boradi. Adabiy muhit yaratishning talablaridan biri ham aynan shu, ya’ni hukmronlikda adabiy muhit yaratishga shart-sharoit bo‘lishi birinchi talab bo‘lsa, hukmdorning o‘zi ham ilm, adabiyotga yaqin bo‘lishi, ilm ahlidan bo‘lishi yana bir asosiy talablardan. Muhammad Rahimxon II mana shunday shaxs bo‘lgan. Ilm ahllarini bir joyga to‘play olgan. Bu davrda ko‘plab shoir, yozuvchilar ijod qildi. Chindan ham Xivada adabiy harakat ko‘proq ma’rifatparvar podshoh, “Feruz” taxallusi bilan she’rlar yozgan Muhammad Rahimxon II atrofida rivoj topdi. Muhammad Rahimxon Soniy — Feruz (1844-1910) saroyda adabiy muhit maydonga keltirdi. 1864 -yili 20 yoshida taxtga chiqib, salkam 47 yil hukmronlik qilgan bu xon, uni yaqindan bilgan ko‘pchilik tadqiqotchilar fikricha, O‘rta Osiyo xonlari orasida eng aqllisi, eng ziyolisi edi. U “usuli jadid”ga yo‘l berdi, ruslar kelmasdan ancha ilgari Xivaga toshbosma olib keldi. Uning topshirig‘i bilan Ahmad Tabibiy (1869-1911) “Majmuatush-shuaroyi Feruzshohiy” (“Feruzshoh shoirlari antologiyasi”)ni tuzadi. 30 shoirning she’ridan namuna beradi. Ular orasida Komil Xorazmiy (1825-1899), Muhammadrasul Mirzo (1840-1922), Avaz O‘tar (1884-1919) kabi xilma-xil ko‘lam va qudratdagi shoirlar bor.

**Adabiyotlar tahlili**. Xorazm adabiy muhiti, devonchilik an’analari hamda matnshunoslik masalalari o‘zbek adabiyotshunosligida muhim yo‘nalishlardan biri sifatida izchil o‘rganib kelinmoqda. Ayniqsa, Begali Qosimovning tadqiqotlari milliy uyg‘onish davri adabiyotini tizimli ravishda yoritib berishi bilan ahamiyatlidir. Olim o‘z asarida Xorazm muhitini ma’rifatparvarlik harakati bilan bog‘liq holda tahlil qilib, bu davrda saroy atrofida shakllangan ijodiy muhitning o‘ziga xos jihatlarini ochib beradi. Jumladan, adabiy muhitning shakllanishida hukmdor shaxsining o‘rni alohida ta’kidlanadi [1, 112-b.]. Bu fikr Laylo ijodini o‘rganishda ham muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Xorazm tarixnavislik maktabining yirik vakillaridan biri Bayoniy o‘zining “Shajarayi Xorazmshohiy” asarida saroy muhitidagi ilmiy-adabiy hayotni bevosita kuzatuvchi sifatida tasvirlaydi. Asarda Muhammad Rahimxon II davrida kitobxonlik, adabiy suhbatlar va ilmiy majlislar keng yo‘lga qo‘yilgani qayd etiladi [8, 59-b.]. Bu ma’lumotlar Laylo kabi ijodkorlarning shakllanishi aynan shu muhit bilan chambarchas bog‘liq ekanini ko‘rsatadi.

Matnshunoslik nuqtayi nazaridan qaralganda, qo‘lyozma manbalarni o‘rganish masalalari alohida ahamiyat kasb etadi. Bu borada Matnshunoslikka oid zamonaviy tadqiqotlarda qo‘lyozmalarni tavsiflash, ularning paleografik va kodikologik xususiyatlarini aniqlash asosiy vazifalardan biri sifatida belgilanadi [3, 74-b.]. Xususan, qo‘lyozma nusxalarining yaratilish davri, kotibi, yozuv uslubi va materiallari matnning ishonchliligini belgilovchi muhim omillar sifatida talqin qilinadi.

Shuningdek, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharq qo‘lyozmalari instituti tomonidan nashr etilgan kataloglar qo‘lyozma manbalarni ilmiy muomalaga kiritishda muhim manba hisoblanadi. Ushbu kataloglarda saqlanayotgan devonlar, ularning inventar raqamlari, qisqacha tavsifi va holati haqida aniq ma’lumotlar berilgan [4, 215-b.]. Laylo devonlarining aniqlanishi va tavsifi ham aynan shu turdagi manbalarga tayanadi.

Xorazm adabiy muhitini o‘rganishda Ahmad Tabibiy tomonidan tuzilgan “Majmuatush-shuaroyi Feruzshohiy” tazkirasi ham muhim manba sanaladi. Unda Feruz davrida yashab ijod qilgan shoirlar haqida qisqacha ma’lumotlar va ularning she’rlaridan namunalar keltirilgan bo‘lib, bu davr adabiy jarayonining ko‘lami va rang-barangligini ko‘rsatadi [7, 18-b.]. Bu esa Laylo ijodini zamondoshlari bilan qiyosiy o‘rganish imkonini beradi.

Bundan tashqari, o‘zbek adabiyoti tarixiga bag‘ishlangan umumiy tadqiqotlarda ham Xorazm adabiy muhitiga alohida e’tibor qaratilgan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi nashr etgan ko‘p jildli “O‘zbek adabiyoti tarixi” asarida XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi adabiy jarayonlar tizimli yoritilib, devonchilik an’analari va janrlar taraqqiyoti haqida muhim ilmiy xulosalar berilgan [2, 334-b.].

Ko‘rib chiqilgan adabiyotlar Laylo adabiy merosini o‘rganishda mustahkam nazariy va manbaviy asos yaratadi. Ular orqali Xorazm adabiy

muhitining o'ziga xosligi, devon tuzish an'analari, qo'lyozma manbalar bilan ishlash metodlari hamda shoira ijodining tarixiy-adabiy kontekstdagi o'rni aniqlashtiriladi. Shu bilan birga, mavjud tadqiqotlar Laylo ijodi hali to'liq o'rganilmaganini, ayniqsa, uning hayoti va ijodiy aloqalari masalasida qo'shimcha izlanishlar olib borish zarurligini ham ko'rsatadi.

**Metodologiya**. Mazkur tadqiqotda Laylo xonim Hamid Afandi qizi adabiy merosini o'rganishda bir nechta ilmiy-uslubiy yondashuvlardan foydalanildi. Avvalo, tarixiy-qiyosiy metod asosida shoira ijodi Xorazm adabiy muhitida faoliyat yuritgan boshqa ijodkorlar merosi bilan solishtirildi. Bu yondashuv Layloning adabiy jarayondagi o'rni va o'ziga xos jihatlarini aniqlash imkonini berdi.

Shuningdek, matnshunoslik tahlili asosiy metod sifatida qo'llanilib, qo'lyozma devonlarning tuzilishi, nusxalari, yozuv uslubi, janriy tarkibi va ichki tartibi o'rganildi. Bu borada Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharq qo'lyozmalari instituti fondida saqlanayotgan qo'lyozmalar asosiy manba vazifasini bajardi. Qo'lyozmalarni tavsiflashda ularning paleografik va kodikologik xususiyatlariga ham e'tibor qaratildi.

Bundan tashqari, tavsifiy va tasnifiy metodlar yordamida devondagi she'rlar janrlar kesimida guruhlandi, ularning miqdoriy va mazmuniy ko'rsatkichlari aniqlashtirildi. Analitik yondashuv orqali esa she'riy namunalar mazmuni, badiiy xususiyatlari va an'anaviy janr talablari bilan uyg'unligi tahlil qilindi.

Natijada qo'llangan metodlar majmuasi Laylo adabiy merosini kompleks tarzda o'rganish, uning ilmiy tavsifini berish va Xorazm adabiy muhitidagi o'rnini asoslash imkonini yaratdi.

**Natijalar.** Shoir va tarixchi Bayoniy shoh va shoir Feruz zamonida ko'plab madrasalar qurilganini, matbaachilik yo'lga qo'yilganini, kitobxonlik avj olganini, xonning o'zi bularning barchasiga bosh-qosh bo'lganini yozadi. [1] Bundan tashqari, uning topshirig'i bilan adabiy kechalar ham tashkillashtirilgan. Bayoniyning "Shajarayi Xorazmshohiy" asarida ushbu fikrlar keltirilgan. "Xon hazratlari haftada ikki kun: juma va dushanba oqshomlarida ulamo bilan suhbat tuzub, kitobxonliq etdurur erdilar. Andog'kim, Yusufhoji oxund va Ismoilxo'ja oxund va Xudoybergan oxund va olimu ulum ma'qul va manqulda Mullo Muhammadrasul va faqiri haqir majlisi humoyunlarig'a haftada ikki martaba hozir bo'lub, kitobxonliq etar erduk. Goho domla Muhammadrasul bila ikkovimiz kirib, suhbati humoyunlarida kitobxonliq bo'lur erdi va sipohiylar va to'ralarni ham kitobxonliq etarga targ'ib etar erdilar. Bas, hamma kitobxon bo'ldilar". [8.59]

Qanchadan qancha devonlar, bayozlar tartib berildi. Hozirgi kunga qadar ularning nodir namunalari kutubxonalarda saqlanib kelinmoqda. O'sha davrda shoh buyrug'i bilan kotiblar tomonidan ko'plab devonlar ko'chirtirilgan va nusxalari hozirgacha yetib kelgan. Devon tuzish an'anasi sharq adabiyotida qadimdan mavjud bo'lib kelgan. Devon tartib berishning o'ziga xos shartlari mavjud bo'lib, barcha ham bu talablarni bajara olmagan. Devon shoirning o'zi yoki muhlislari va shogirdlari tomonidan tuzilishi mumkin. Bu she'riy to'plamni tuzish uchun shoir ijodida arab alifbosi tartibida, ya'ni qofiyalanib keladigan so'zlarning oxirgi harflari arab alifbosidagi harflar bilan tugallangan she'rlar mavjud bo'lishi zarur. Devon tartib berish shoirning ijodiy samaradorligini va yetukligining belgisi sifatida ko'rilgan.

Biz o'rganayotgan mavzu aynan mana shu davr bilan uzviy bog'langan bo'lib, aynan shu adabiy muhitning bir a'zosi sifatida namoyon bo'ladi. Laylo adabiy merosini o'rganish tadqiqot obyektimiz hisoblanib, tadqiqot markazida Xorazm adabiy muhiti turadi. Shoira asli kim, qayerdan va qanday qilib bu davraga kirganligi haqida izlanishlar o'tkazmoqdamiz, lekin hayoti haqida ma'lumotlar ko'p emas. 1848-yil Turkiyada vafot etganligi haqida ilmiy adabiyotlarda ma'lumotlar keltirilgan. Hozirgi kunda Sharq qo'lyozmalari institutida 918 va 6680 invitar raqamlari ostida 2 ta devoni nusxalari saqlanib kelinmoqda. Bu devonlar boshqa shoirlar devonlari bilan bir to'plam ostida birlashtirilgan. Bu invitar raqamlar ostida yana bir necha shoirlarning ham devonlari bor.

Bu ikki qo'lyozma nusxalari hijriy 1231, milodiy 1816-yilda Muhammad Rahim Bahodirxon buyrug'i ostida ko'chirilgan. 918 invitar raqamli devoni nisbatan to'liq, u janrlar xilma-xilligini o'z ichiga olgan. 6680 invitar raqamli qo'lyozma avvalgi qo'lyozmaning aynan nusxasi, lekin to'liq bo'lmagan nusxa hisoblanadi. Bu nusxada arab alifbosidagi barcha harflar bilan tugallangan g'azallarni va ba'zi janrlarni qamrab olgan xolos. Ikkala nusxa ham an'anaviy "Basmala" bilan boshlangan. Birinchi nusxada basmaladan so'ng munojot berilgan, ammo ikkinchi nusxada to'g'ridan-to'g'ri g'azal janri keltiriladi. She'rlar jadval ichiga olingan bo'lib, unga tilla suvi yuritilgan, bir asrdan oshibdiki, varoqlari haligacha tiniq va yangidek saqlanib kelinmoqda. Bundan ko'rinadiki, kitobga sifatli qog'oz ishlatilgan. Yozuvi nastaliq, tili turkiyda bitilgan. Har varoqda poygirlari berib o'tilgan va ichki unvonlari ham mavjud. Kolofon qismida kotib tomonidan qo'lyozmaning yozilgan yili ya'ni 1816-yil Muhammad Rahimxon buyrug'i ostida bitilganligi ma'lum qilingan.

Asarning janrlariga to'xtaladigan bo'lsak, qo'lyozmada ularning xilma-xilligini ko'rishimiz mumkin. 918-raqamli qo'lyozma Basmala va undan keyin munojot bilan davom etadi. Undan so'ng esa muxammas na't o'rin olgan. Shundan so'ng janrlar ketma-ketligida marsiya, qasida, tarix, g'azal, mustazod, tarkibband, taxmis, naziralar, undan so'ng ruboiyyot va mufradot bilan yakunlangan. Marsiyalar ma'lum bir shaxslarning vafoti munosabati bilan yozilgan bo'lsa qasidalari shohni ulug'lash yoki janglardagi g'alaba munosabati bilan yozilgan. Qo'lyozmada jami 49 ta tarix keltirilgan bo'lib, ular ham ayrim shaxslarga, shuningdek ma'lum bir voqeaga bag'ishlangan. Misol uchun bir tarix Fotima sulton, boshqasi Ruqiya sultonga bag'ishlangan bo'lib, ularning tug'ilishini go'yoki osmonda chiqqan yangi oyga qiyoslagan va hukmdorning bu xabardagi xursandchiligi tasvirlangan.

Devondagi asosiy janr g'azal va devon yaratilishi shartlaridan asosiysi ham aynan mana shu janr. Asarda arab alifbosidagi harflar bilan tugallangan g'azallar katta qismni egallagan bo'lib, har bir harfga turli miqdorda g'azal kiritilgan. Ba'zilariga bittadan, ba'zilariga 11 yoki 12 tadan ham kiritilganini guvohi bo'lishimz mumkin. ا harfida 5 ta g'azal va 1 mustazod, ب harfida 4 ta g'azal, ت harfida 1 g'azal va 1 mustazod, ث harfida 1 ta g'azal, ج harfida 2 ta g'azal, ح harfida 1 ta, خ harfida 1 ta, د harfida 2 ta, ذ harfida 1 ta, ر harfida 11 ta, ز harfida 3ta g'azal, 1 mustazod, س harfida 1 ta g'azal, ش harfida 2 ta, ص harfida 1ta, ض harfida 1 ta, ط harfida 1ta, ظ harfida 1ta, ع harfiga 1 ta, غ harfiga 1 ta, ف harfiga 3ta, ق harfiga 2 ta, ک harfiga 2 ta, ل harfiga 5 ta, م harfiga 12 ta, ن harfiga 6 ta, و harfiga 1 ta, ه harfiga 3 ta g'azal va 1 ta mustazod va ی harfiga esa 11 ta g'azal kiritilgan.

Shuningdek, Laylo o'sha davrda yashab o'tgan shoirlar she'rlariga taxmis, naziralar bitgan. Bu davrda naziralar yaratish, taxmislar bog'lash shoir, yozuvchilar o'rtasida urfga kirgan palla edi. Devon so'nggida ruboiyyot berilgan bo'lib shoiraning jami 18 ta ruboiysi kiritilgan va so'nggi janr mufradot bilan yakunlangan.

Shoira Laylo Xorazm adabiy muhitida o'zining salmoqli o'rniga ega bo'lgan ayol ijodkorlardan. Ayollarning bunday davralarda eshitish kamdan-kam kuzatilishi mumkin. Ammo shunday paytda Layloning she'riyat osmonida paydo bo'lishi Xorazm she'riyati, adabiytida uchun yangi bir o'zgarishdir.

**Muhokama**. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Laylo xonim Hamid Afandi qizining adabiy merosi Xorazm adabiy muhitining ajralmas qismi sifatida shakllangan bo'lib, uning ijodi mazkur davr adabiy jarayonining muhim jihatlarini o'zida aks ettiradi. Xususan, Muhammad Rahimxon II (Feruz) davrida yaratilgan ilmiy-adabiy muhit ijodkorlar faoliyati uchun keng imkoniyatlar yaratganini hisobga olsak, Laylo ijodining aynan shu muhit bilan uzviy bog'liqligi yanada yaqqol namoyon bo'ladi.

Qo'lyozma devonlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, shoira ijodida an'anaviy devon tuzish talablari to'liq saqlangan. Xususan, g'azal janrining yetakchi o'rinni egallashi, she'rlarning arab alifbosi tartibida joylashtirilishi hamda devonning "Basmala" bilan boshlanishi sharq mumtoz adabiyoti an'analariga mos keladi. Bu holat Layloning nafaqat ijodkor, balki adabiy an'analarni chuqur o'zlashtirgan shoiralardan biri bo'lganini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, devondagi janrlar xilma-xilligi – muxammas, marsiya, qasida, mustazod, ruboiy va boshqa shakllarning mavjudligi shoira ijodining keng qamrovli ekanidan dalolat beradi. Ayniqsa, boshqa shoirlar g'azallariga bitilgan taxmis va naziralar Layloning zamondoshlari bilan ijodiy aloqada bo'lganini ko'rsatadi. Bu esa Xorazm adabiy muhitida ijodiy muloqot va o'zaro ta'sir kuchli bo'lganini tasdiqlaydi.

Muhokama jarayonida yana bir muhim jihat – Layloning ayol ijodkor sifatidagi o'rni masalasidir. Ma'lumki, XIX asr adabiy muhitida ayol shoiralar nisbatan kam uchraydi. Shunday sharoitda Layloning devon tuzgan darajadagi ijodkor sifatida namoyon bo'lishi uning adabiy salohiyati yuqori bo'lganini ko'rsatadi. Bu esa o'z navbatida Xorazm muhitida ayollar ijodiga ham muayyan darajada imkoniyat yaratilganini taxmin qilishga asos beradi.

Biroq mavjud qo'lyozmalar asosida olib borilgan tahlillar ayrim cheklovlarga ham ega. Xususan, shoira hayoti va faoliyati haqida tarixiy manbalarda ma'lumotlar kamligi uning ijodini to'liq biografik kontekstda o'rganishga to'sqinlik qiladi. Shuningdek, mavjud ikki devon nusxasining biri to'liq emasligi ayrim janr va she'rlarning yo'qolgan bo'lish ehtimolini ham ko'rsatadi. Shu sababli kelgusida yangi qo'lyozma manbalarni izlab topish, mavjud nusxalarni qiyosiy tahlil qilish va ilmiy-nashriy tayyorlash ishlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Olib borilgan muhokama Laylo adabiy merosi Xorazm adabiy muhitining muhim tarkibiy qismi ekanini, uning ijodi esa devonchilik an'analari, janrlar tizimi va ijodiy aloqalar nuqtayi nazaridan alohida ilmiy qiziqish uyg'otishini ko'rsatadi.

**Xulosa**. Olib borilgan tadqiqotlar natijasida Laylo xonim Hamid Afandi qizining adabiy merosi Xorazm adabiy muhitining muhim tarkibiy

qismi ekanligi aniqlandi. Uning ijodi Muhammad Rahimxon II (Feruz) davrida shakllangan adabiy jarayon bilan bevosita bogʻliq boʻlib, mazkur muhitning asosiy xususiyatlarini oʻzida mujassam etgan.

Tadqiqot davomida shoira devonlarining mavjud ikki qoʻlyozma nusxasi aniqlanib, ularning tuzilishi, janriy tarkibi va matnshunoslik jihatlari oʻrganildi. Devonlarda gʻazal janrining yetakchi oʻrinda ekanligi, shuningdek, muxammas, marsiya, qasida, mustazod, ruboiy kabi janrlarning mavjudligi Laylo ijodining serqirra ekanligini koʻrsatadi. Bu esa uning mumtoz adabiyot an'analarini chuqur egallagan ijodkor boʻlganidan dalolat beradi.

Shuningdek, qoʻlyozmalarning paleografik va kodikologik xususiyatlari, ularning yaratilish davri hamda koʻchirilish jarayoni Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharq qoʻlyozmalari instituti fond materiallari asosida aniqlashtirildi. Bu esa devonlarning ilmiy va tarixiy ahamiyatini yanada oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, Laylo adabiy merosi nafaqat alohida bir ijodkorning poetik dunyosini, balki Xorazm adabiy muhitining rivojlanish jarayonini oʻrganishda ham muhim manba boʻlib xizmat qiladi. Shu bilan birga, shoira hayoti va ijodiga oid ma'lumotlarning kamligi kelgusida qoʻshimcha izlanishlar olib borishni talab etadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI**


1. Begali Qosimov B. Milliy uygʻonish davri oʻzbek adabiyoti. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016. – 320 b.
2. Oʻzbek adabiyoti tarixi (5-jild). – Toshkent: Fan, 2018. – 560 b.
3. Matnshunoslik asoslari / tahrir hay'ati: Sh. Sirojiddinov. – Toshkent: Akademnashr, 2019. – 288 b.
4. Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharq qoʻlyozmalari instituti. Qoʻlyozmalar tavsifi katalogi. – Toshkent: Fan, 2020. – 400 b.
5. Naim Karimov N. XX asr oʻzbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: Akademnashr, 2021. – 512 b.
6. Adabiyotshunoslikka kirish / mualliflar jamoasi. – Toshkent: Universitet nashriyoti, 2020. – 256 b.
7. Ahmad Tabibiy. Majmuatush-shuaroyi Feruzshohiy (nashrga tayyorlovchi: zamonaviy tadqiqotchilar). – Toshkent: Fan, 2019. – 350 b.
8. Bayoniy. Shajarayi Xorazmshohiy. – Toshkent: Akademnashr, 2021. – 280 b.
9. Komil Xorazmiy. Devon. – Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot, 2018. – 240 b.
10. "Xorazm adabiy muhiti va devonchilik an'analari" // Oʻzbek tili va adabiyoti jurnali. – Toshkent, 2022. – №3. – B. 45–52.
11. "Matnshunoslikda qoʻlyozma manbalarni oʻrganish masalalari" // Filologiya masalalari. – Toshkent, 2023. – №1. – B. 78–85.
12. www.ziyonet.uz
13. www.wikipedia.uz